



O'zbekiston Ipotekani Qayta  
Moliyalashtirish Kompaniyasi

# **O'zIQMK faoliyatining 2024-yil 1-chorak natijalari**

April 2024




## Keltirilgan atamalar

<b>Umumiy tushunchalar</b>		<b>Kompaniyaning hamkor banklari</b>	
Kompaniya	- O'zIQMK	IPTB	- «Ipoteka-bank» ATIB
OTB	- Osiyo Taraqqiyot Banki	SQBN	- «O'zsanoatqurilishbank» ATB
IMT	- Ishtirokchi moliyaviy tashkilot, Kompaniyaning hamkor banki	HMKB	- «Hamkorbank» ATB
DTI	- Qarz yuki	ASBU	- «Asakabank» AJ
LTV	- Kredit miqdorining uy-joy narxiga nisbati	TURO	- «Turonbank» ATB
NPL	- Muammoli kredit	BRB	- «Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB
IMV	- O'zbekiston Iqtisodiyot va Moliya vazirligi	AGRO	- «Agrobank» ATB
MB	- O'zbekiston Markaziy Banki	NBUZ	- «O'zmilliybank» AJ
FBOOKF	- Fuqarolarning Banklardagi Omonatlarini Kafolatlash Fondi	XALQ	- «Xalq Banki» AT
		OFB	- «Orient Finans» XATB
		InFinbank	- «Invest Finance Bank» AJ




# Kompaniyaning resurs manbasi va qayta moliyalashtirilgan portfeli

### Kompaniya resurs manbasi jalb qilish dinamikasi



### Qayta moliyalashtirilgan portfel, IMTlar kesimida




2024-yil 1-chorakda Kompaniyaning resurs manbasi 3 340 mlrd. so'mga yetdi. Qayta moliyalashtirilgan portfel 2023-yil 4-chorakga nisbatan 5,1% oshdi.




# Kompaniya shartlari asosida ajratilgan kreditlarning ipoteka bozorida o'rni

Ajratilgan ipoteka kreditlari yillar kesimida, mlrd. so'm



Kompaniya mezonlari bo'yicha ajratilgan ipoteka kreditlarining jami ipoteka portfelidagi ulushi




2024-yil 1-chorak davomida aholiga jami 3 521,4 mlrd. so'm ipoteka kreditlari ajratilgan. Shundan, 10,8%, ya'ni 380,3 mlrd. so'm Kompaniya qayta moliyalashtirgan kreditlardir.

2024-yil 1-chorak yakuniga ko'ra O'zIQMK tomonidan qayta moliyalashtirilgan ipoteka kreditlarining umumiy ipoteka kreditlaridagi ulushi 6,1%ga yetdi.




# Portfel dinamikasi va qamrovi

### Jami qayta moliyalashtirilgan portfel



### Jami ipoteka portfeli banklar kesimida




Chorak oxiriga qayta moliyalashtirilgan kreditlar soni 17 084 taga (3,2 trln. so'mga) yetdi.

Ajratilgan ipoteka kreditlarining 95,61%i Kompaniya IMTlari tomonidan ajratildi.



## Muvofiq ipotekalarning taqsimlanishi




Qayta moliyalashtirilgan kreditlarning hududlar kesimida eng yuqori taqsimlanishi Toshkent, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi.




# Kreditlash faoliyatining natijalari

Qarz oluvchilar soni gender va ajratilgan qiymat kesimida, mlrd so'mda, ichki doira - dekabr 2023y., tashqi doira - mart 2024y.




Ipoteka kreditlar gender va maqsadi kesimida, mlrd. so'm




2024-yil 1-chorakda qayta moliyalashtirilgan kreditlarning 35,3%ni ayollar va 64,7%ni erkaklar tashkil qildi.

2024-yil 1-choragida ta'mirlash uchun ajratilgan kreditlar tarkibida ayollarning ulushi eng yuqori 75,6%ni tashkil etdi va o'tgan chorakka qaraganda 0,6% kamaygan.

Yosh kesimida



Gender kesimida





# Bozorga asoslangan ipoteka kreditlari (2024-aprel)


Mezonlar		SQBN			Ziraat			Saderat			InFinBank			OFB			Tengebank			XALQ			Ipak Yo'li Bank			IPTB			AGRO			HMKB		
Qarz oluvchiga talablar	Qarz oluvchining yoshi	18≤60			21 ≤ 60			18 ≤ 60			18+			18 ≤ 60			21 ≤ 60			18 ≤ 60			18 ≤ 60			21 ≤ 60			18 +			18 ≤ 60		
	Bozor	Birlamchi va ikkilamchi			Birlamchi va ikkilamchi			Birlamchi va ikkilamchi			Birlamchi va ikkilamchi			Birlamchi va ikkilamchi			Birlamchi va ikkilamchi			Birlamchi va ikkilamchi			Birlamchi va ikkilamchi			Birlamchi va ikkilamchi			Birlamchi va ikkilamchi			Birlamchi va ikkilamchi		
	Maqsad	Uy-joy sotib olish																																
	DTI, %	≤ 70			≤ 60			≤ 70			≤ 50			≤ 50			≤ 70			≤ 70			≤ 70			≤ 50			≤ 50			≤ 70		
	LTV, %	≤ 85			≤ 75			≤ 74			≤ 74			≤ 75			≤ 75			≤ 74			≤ 75			≤ 74			≤ 75			≤ 70		
	Kredit muddati, yil	≤ 7	≤ 10	≤ 15	≤ 5	5 - 7	7 - 10	≤ 7	10 - 15			≤ 20			10 - 15			≤ 15			≤ 7	≤ 20			≤ 10			≤ 10						
	Foiz yillik, %	24,0	25,0	26,0	25,5	26,0	28,0	24,0	27,9-28,9			24,0	26,0	23,9-24,9			24,0-25,0			24,0-27,0			25,9-26,9			26,0-26,5			25,0					
	Imtiyozli davr, oy	≤ 3	≤ 8	≤ 18	Mavjud emas			Mavjud emas			Mavjud emas			Mavjud emas			Mavjud emas			Mavjud emas			Mavjud emas			Mavjud emas			24			Mavjud emas		
	Maksimal miqdori, mln. so'm	≤ 1 500			≤ 1 853			≤ 900			≤ 918			≤ 500	≤ 900		≤ 820			≤ 600	≤ 1 200		≤ 800			≤ 1 700			≤ 1 020			≤ 600		
	To'lov usuli	Differentsial/Annuitet			Differentsial/Annuitet			Differentsial/Annuitet			Differentsial/Annuitet			Differentsial/Annuitet			Differentsial/Annuitet			Differentsial/Annuitet			Differentsial			Differentsial			Differentsial/Annuitet			Differentsial/Annuitet		

Bozorga taqdim etilgan ipoteka mahsulotlari.






## Bozor asosidagi ipoteka kreditlari stavkalari



Bozorda tijoriy shartlar asosida ajratilayotgan ipoteka kreditlari asosan 7-15 yil muddatli bo'lib, foiz stavkasi yiliga 24%-29% tashkil etmoqda.



## Turlari va mulk bozori bo'yicha sotib olingan mulklarning hududiy taqsimlashi




Qayta moliyalashtirilgan portfel 17 084 ta ipoteka kreditidan iborat bo'lib, ulardan kvartira sotib olish uchun 11 680 ta (75,4%) va hovli sotib olish uchun esa 3 813 (24,5%)ni tashkil etdi. Ushbu kvartira xaridlarining katta qismi (66,7%) Toshkent, Navoiy va Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi.

Xaridlarda hovlining ulushi boshqa hududlarga nisbatan Andijon (12,0%), Xorazm (15,0%), Qoraqalpog'iston R. (14,3%)da yuqori bo'lgan.



# Qarz oluvchilarning ko'rsatkichlari



Daromadi 10-15 million so'm bo'lgan qarz oluvchilar 2021 yilga nisbatan 16%ga oshgan va 5 million so'mgacha bo'lgan qarz oluvchilar soni 6% kamaygan.

Qarz oluvchilarning 66% ulushi oylik sof daromadlarining 45% dan kamini ipoteka kreditlariga sarflaydi.